



QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

Jamoat xavfsizligi universiteti,

“Iqtisodiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: shavkatjonusmonov3007@gmail.com

Dunyomizda ekologik muammolari yiriklashishi va bu borada xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishi munosabati bilan O‘zbekistonda ham barqaror rivojlanish va ekologiya masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, ushbu ekologik muammolarni hal etish mamlakatning barqaror rivojlanishi, aholi salomatligi va turmush sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, ushbu muammolarni bartaraf etish ustida ishlash, bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lmoqda.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta‘minlash, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi ““O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni qabul qilingani alohida ahamiyat kasb etadi.

Unga ko‘ra 2025 yilda umumiy quvvati 4,5 GVt bo‘lgan yirik quyosh va shamol elektr stansiyasini ishga tushirish, quvvati 785 megavatt bo‘lgan quyosh panellarini o‘rnatish, quvvati 225 megavatt bo‘lgan gidroelektr stansiyalarini barpo etish orqali jami qayta tiklanuvi energiya manbalari ulushi elektr energiyasi ishlab chiqarishda 26 foizga va jami generatsiya quvvatlari tarkibidagi ulushi 40 foizga yetkazish rejalashtirilgan [1].

Iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish va iqlim o‘zgarishiga moslashishga qaratilgan loyihalarni **barqaror moliyalashtirish bo‘yicha 2025 yil 1 dekabrqa qadar**



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th February, 2025

O‘zbekiston Respublikasida “**yashil moliyalashtirish**” tizimini shakllantirish bo‘yicha **milliy dastu** ishlab chiqish; 2025 yildan boshlab yashil va kam uglerodli rivojlanish loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga xalqaro moliyaviy tashkilotlardan imtiyozli kredit va grant mablag‘larini jalb etish choralari ishlab chiqish vazifalari va ma’sul organlar belgilab berildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda, davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish, shu jumladan, xarid jarayonlarini raqamlashtirishni jadallashtirish va “yashil” davlat xaridlarini kengaytirish maqsadida qonunchiligimizda bir qator yutuqlarga erishildi, shuningdek 2025 — 2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasi (keyingi o‘rinlarda — Strategiya) qabul qilindi [2].

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish loyihalarini moliyalashtiruvchi xalqaro moliyaviy institutlar va boshqa "donor" tashkilotlarning mablag'larini yo'naltirish orqali loyihalarni moliyalashtirishga oid ishlar amalga oshirilmoqd [3].

Shuningdek 2025-yilda mamlakat energetika tizimida “yashil” energiya ulushini hozirgi 16 foizdan 26 foizga yetkazish rejalashtirmoqda. Buning uchun yana 3,5 gigavattli 16 ta yirik quyosh va shamol stansiyaci, 160 megavattli 5 ta yirik GES va 1,8 gigavattli energiya saqlash quvvatlari ishga tushiriladi [4]. Bunga qo'shimcha ravishda - davlat korxonalari, sanoat va xizmat ko'rsatish majmualari hamda xonadonlarda quyosh panellari o'rnatishni rag'batlantirish davom ettirish maqsadida 2 trillion so'm kredit ajratish belgilangan.

2016 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan davrda elektr ishlab chiqarish 38 foiz oshib, 81,5 milliard kilovatt soatga etgan. Xususiy sektorga keng yo'l ochilgani tufayli 11,2 gigavattli qo'shimcha quvvat yaratilgan. Natijada bu sektorning generatsiyadagi ulushi 24 foizga, "yashil" energiya hisssasi esa 16 foizga yetgan [5] (1-jadval).



2016 — 2024-yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish hamda iste'molchilarini elektr energiyasi bilan ta'minlash ko'rsatkichlari [6]:

mlrd kVt·soat

Yillar va nomi	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Iste'molchilarini elektr energiyasi bilan ta'minlash ko'rsatkichlari	45,7	47,4	50,5	52,7	55,8	59,1	62,6	66,1	67,5
Elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari	59,0	60,7	62,8	63,6	66,4	71,3	74,3	78,0	81,5
Elektr energiyasi ortgan miqdori	13,3	13,3	12,3	10,9	10,6	12,2	11,7	11,9	14,0

2024-yili iste'molchilarga 2016-yildagiga nisbatan 21,8 mlrd kVt·soat yoki 48 foiz ko'p elektr energiyasi yetkazib berilgan hamda 2024-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 2016-yildagiga nisbatan 22,5 mlrd kVt·soat yoki 38 foiz ko'pni tashkil etgan.

Shu davrda aholi daromadi oshib, yangi turdagi maishiy texnikalardan foydalanilayotgani ortgan va xonadonlarda elektr iste'moli 21 milliard kilovatt soatdan oshishiga olib keldi. Bu o'z o'rnida 2016 yilgi ko'rsatkichga nisbatan 2 baravar oshganini ko'rishimiz mumkin.

2030 yilga borib, mamlakatimiz aholisi 41 millionga etishi, iqtisodiyotimiz esa 1,5 karra o'sishi kutilmoqda. Buning uchun, avvalo, barqaror elektr ta'minoti zarur bo'lib 2030 yilda 117 milliard kilovatt soat, 2035 yilda esa 135 milliard kilovatt soat elektr energiyasi talab etadi. Ya'ni, hozirgi nisbatan 1,7 baravar ortadi.

Yangi elektr stantsiyalari va energiya saqlash quvvatlari barpo etish lozim. Ularni tizimga ulash uchun 7 ming kilometr magistral tarmoq qurish rejalashtirilmoqda. Bu orqali hududlarda energiya balansi ta'minlanadi.

Shundan kelib chiqib, 2030 yilga borib jami generatsiyada "yashil" energiya ulushini 50 foizdan oshirish ko'zda tutilgan. Jumladan, 3 mingta mikrogasda 164 megavatt, quyosh va shamol qurilmalari hisobiga 750 megavatt quvvatlarni ishga tushirish rejalashtirilgan.

Yashil energiyani qo'llab quvvatlovchi "Qayta tiklanuvchi energiya (atrof muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi) manbalaridan foydalanish kengaytirilishi hamda tarif islohotlarining tizimli amalga oshirilishi munosabati

International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th February, 2025

bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Hukumat qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Hukumatining ayrim qarorlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalari (kelgusida -QTEM) qurilmalarini ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash;
- jismoniy va yuridik shaxslarga QTEM qurilmalarining ehtiyot qismlarini, shuningdek, energiya tejovchi zamonaviy romlar va qurilish izolyatsiya materiallarini xarid qilishni yo'lga qo'yish;
- tijorat banklari tomonidan "yashil" iste'mol kreditlari ajratilishini keng joriy etish hamda kreditlar bo'yicha foizlarning bir qismiga kompensatsiyalar ajratishni yanada kengaytirish.

Banklar tomonidan "yashil" iste'mol krediti quyosh fotoelektr stantsiyasi, quyosh suv isitkichlari va shamol elektr stantsiyalarini o'rnatish maqsadlari uchun ajratiladi. Ya'ni BHMning 500 baravarigacha bo'lgan "yashil" iste'mol kreditlari bo'yicha foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshgan, biroq 5 foizli banddan ko'p bo'lmagan qismi uchun 3 yil kompensatsiya beriladi. Ya'ni bugungi kunda MB asosiy stavkasi 13,5 foiz, agar kredit foizi 18 foiz bo'lsa uning 5 foizi davlat tomonidan qoplab beriladi.

2 - jadval. Tijorat banklari tomonidan 2023 yil 1 chorak davomida quyosh panellari sotib olish uchun ajratilgan kreditlar miqdori [8]

№	Bank nomi	Jami kreditlar		Tadbirkorlarga kreditlar			Aholiga kreditlar		
		soni	mlrd. so'm	soni	mlrd. so'm	quvvati (kWT)	soni	mlrd. so'm	quvvati (kWT)
	Жами	2 795	227,6	91	160,3	12 390	2 704	67,3	6 039
1	O'zmilliybank	7	81,4	6	81,4	655	1	0,03	3
2	O'zsanoatqurilishbank	364	35,7	4	25,6	7 500	360	10,1	905
3	Asaka bank	52	12,5	1	11,4	1 138	51	1,1	107
4	Agrobank	369	16,7	25	7,3	734	344	9,4	821
5	Ipoteka bank	143	15,6	4	12,5	55	139	3,1	278
6	Xalq banki	872	18,6	10	1,1	140	862	17,4	1 619
7	Qishloq qurilish bank	209	6,3	4	1,1	56	205	5,3	504

International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th February, 2025

8	Mikrokreditbank	733	24,2	10	4,5	467	723	19,8	1 755
9	Turon bank	3	3,9	3	3,9	385	0	0,00	0
10	Aloqa bank	4	1,8	4	1,8	176	0	0,00	0
11	Hamkor bank	2	0,1	1	0,1	5	1	0,0	2
12	Ipak yo'li bank	6	1,8	2	1,6	405	4	0,1	14
13	Kapital bank	4	0,7	4	0,7	207	0	0,0	0
14	Davrbank	1	2,0	1	2,0	220	0	0,0	0
15	Aziya Alyans bank	21	4,6	7	3,6	71	14	1,0	31
16	Universalbank	1	0,3	1	0,3	20	0	0,00	0
17	Garant bank	4	1,6	4	1,6	156	0	0,00	0

Shuningdek mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan, QTEMdan energiya ishlab chiqarish, energiyani qabul qilib olish, o'zgartirish, to'plash va (yoki) uzatish, shuningdek, hisobga olish bo'yicha texnologik asbob-uskunalar majmuasi, texnologik va (yoki) butlovchi asbob-uskunalar (QTEM qurilmalari)ni xarid qilish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish yoki bo'lib-bo'lib to'lagan holda sotib olish tartibi tasdiqlandi. Unga ko'ra Energetika vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasi mablag'lari hisobidan:

- jismoniy shaxslar tomonidan respublikada ishlab chiqarilgan QTEM qurilmalari qiymatini 36 oygacha muddat davomida foizsiz teng miqdorda to'lash sharti bilan to'lovlarni amalga oshirish tartibi;
- QTEM qurilmalarining qiymatini to'liq to'lagan holda ularni xarid qilgan va o'rnatgan jismoniy shaxslarga xarid qilish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish tartibi;
- jismoniy shaxslarga quyosh yoki shamol elektr stansiyasini o'rnatganlik uchun, agar ularning quvvati 0,5 kVtdan 1 kVtgacha bo'lsa — bazaviy hisoblash miqdorining 7 barobari miqdorida, 1 kVtdan 1,5 kVtgacha bo'lsa — BHMning 10 barobari, 1,5 kVtdan 2 kVtgacha bo'lsa — BHMning 15 barobari, 2 kVt va undan yuqori bo'lsa — BHMning 20 barobari miqdorida kompensatsiya to'lanishi;
- yangi yerlar o'zlashtirilganda va tik quduqlarda o'rnatilgan suv nasoslarining elektr energiyasi iste'moli 5 kVt va undan yuqori bo'lgan QTEM qurilmalari orqali ta'minlanganda BHMning 50 barobari miqdorida kompensatsiya berilishi;



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th February, 2025

- suv isitish hajmi 100 litr va 200 litr bo'lgan quyosh suv isitish qurilmalari uchun tegishli BHMning 5 va 7 barobari miqdorida kompensatsiya berilishi belgilandi[9].

QTEMni qo'llash hisobidan hududlarda energiya tanqisligini bartaraf etishga doir ishlarni amalga oshirish maqsadida QTEMning qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun soliq imtiyozlari berilishi ham nazarda tutilmoqda. Ushbu choralar albatta QTEMning keng joriy etilishi rag'batlantirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dunyoda quyosh energiyasini ishlab chiqarish 45 %ga o'sib, 1,2 TVtni tashkil etdi. Quyosh energiyasini faol ishlab chiqaruvchi mamlakatlar soni ham 2 baravardan ko'proqqa oshdi, 12 tadan 26 taga ko'paydi. O'zbekiston ham shu mamlakatlar qatoriga kirdi.

TOP-5 ga Xitoy, AQSh, Hindiston, Braziliya va Ispaniya kirishdi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, 2025 yil oxiriga kelib bunday mamlakatlar soni 50 taga etadi, ammo hozircha bu sohaning rivojlanishi elektr energiyani taqsimlash tizimlarining quvvatlari bilan cheklangan, bu esa yangi quvvatlarni tezda qo'shishga imkon bermaydi.

2025 yil dasturi loyihasi tashabbuslari shakllantirilgan. Unga ko'ra, 2025 yilda 27 mingdan ziyod ijtimoiy va xususiy ob'ektlarga hamda 35 mingta xonadonlarda kichik quyosh panellari o'rnatish dasturini kiritish topshirilmoqda.

Xorij tajribasiga tayansak, Ember tahlil markazining hisobotidan kelib chiqqan holda, quyosh energiyasi birinchi marta 2024 yil oxirida Evropa Ittifoqida ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ko'mirni ortda qoldirdi. Quyosh energiyasi umumiy ishlab chiqarishning 11 foizini, ko'mir 10 foizini tashkil etdi.

Fransiyada kam uglerodli elektr energiyasining ulushi 95% ga yetgani xabar qilindi. Atom elektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan energiya hajmi 13 foiz oshib, oxirgi olti yilda eng yuqori darajani ko'rsatdi va mamlakatda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 67 foizini tashkil qildi. QTEM esa rekord darajadagi 148 teravatt-soatga yetdi. Bu umumiy ishlab chiqarish hajmining qariyb 28 foizini tashkil etadi. Kuchli yomg'irlar sababli gidroenergetika 2013-yildan buyon eng yuqori darajaga ko'tarilgan. Shu bilan birga, shamol energetikasida pasayish kuzatilgan. 2024 yili quyosh elektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan elektr



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com


20th February, 2025

energiyasi esa mamlakat energiya balansida 4,3 foizdan iborat bo'lgan. Gaz, ko'mir va mazutdan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqarish 1950-yillardan buyon eng past ko'rsatkichga tushgan.

Germaniyada elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushi 2024-yilning birinchi yarmida rekord darajani qayd etgan. Mamlakat statistika boshqarmasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, qayta tiklanadigan energiya manbalari(QTEM)ning elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi joriy yil birinchi yarmida 61,5 foizga yetgan. O'tgan yilning xuddi shu davrida mazkur raqam 53,3 foiz bo'lgan. An'anaviy manbalardan elektr energiyasi ishlab chiqarish 21,8 foiz qisqarib, uning ulushi 2023-yilning birinchi yarmidagi 46,7 foizdan 38,5 foizga tushgan. Ko'mirda ishlaydigan elektr stansiyalarida ishlab chiqarish 26,4 foiz kamayib, birinchi yarim yillikda 45,9 milliard kVt-soat elektr energiyasi generatsiya qilingan. Natijada ishlab chiqarishda ularning ulushi o'tgan yildagiga nisbatan 6 foiz kamayib, 20,9 foizni tashkil etgan.

Qardoshlarimiz Turkiya davlati quyosh energiyasi hisobiga gaz importidan 2024 yil davomida \$1,7 mlrd tejagani ma'lum qilindi. Turkiya oxirgi ikki yarim yil ichida quyosh panellari quvvatini deyarli ikki barobar oshirdi: 2022-yil iyulida 9,7 GVt bo'lgan quvvat 2024-yil dekabrda 19 GVtga yetdi. Ilgari mamlakatga PV-modullar quvvatini ikki barobar oshirish uchun to'rt yil kerak bo'lgan edi.

"Ember" ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuniga ko'ra Turkiyada quyosh energetikasining ulushi 5,8% dan 7,6% ga oshdi. Natijada, mamlakat 2024-yilda gaz importidan \$1,7 mlrd tejashga erishdi, bu o'tgan yilga nisbatan 22% ko'proqdir (1-rasm).



1-rasm. Turkiyada quyosh energetikasining ulushini o'zgarish dinamikasi [10].

Kelgusi yillarda Turkiya yanada ko'proq tejash imkoniyatiga ega bo'ladi:

2024-yil oxiriga kelib, mamlakatda umumiy quvvati 14 GVt bo'lgan 412 ta quyosh elektr stansiyasi (QES) loyihasi investitsiyaga tayyorlik bosqichida edi;

2025–2028-yillar davomida umumiy quvvati 4,8 GVt bo'lgan “Akkuyu” AESning to'rtta energobloki ishga tushiriladi. Bu mamlakatning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojining 10% ni ta'minlaydi va yiliga 10 mlrd kub metr gaz tejash imkonini beradi.

Hindistonda esa 2024 yilda 24,5 GVt quvvatga ega quyosh panellari ishga tushirildi, ulardan:

- 18,5 GVt yirik elektr stansiyalariga to'g'ri keldi;
- 4,6 GVt – xususiy va ko'p xonadonli uylarning, shuningdek tijorat va ma'muriy binolarning tomlariga joylashtirilgan PV modullari;
- 1,5 GVt-umumiy tarmoqdan ajratilgan va uzoq hududlarni ta'minlash uchun foydalaniladigan elektr stansiyalarida.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th February, 2025

2024 yil yakunlariga ko'ra Hindistonda REE ning o'rnatilgan quvvati 209,4 GVtga yetdi. Mamlakat rasmiylari 2030 yilga kelib ushbu ko'rsatkichni 500 GVt ga yetkazishni rejalashtirmoqda.

O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" sohasida kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayrim oliy ta'lim muassasalarida ushbu yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrda PQ-436-son qaroriga muvofiq, oliy ta'lim muassasalarida "yashil" iqtisodiyot va barqaror biznes bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash belgilangan.

Ayrim universitetlar, jumladan, Guliston davlat universiteti, o'z o'quv dasturlariga "Yashil iqtisodiyot" fanini kiritgan. Bu fan doirasida talabalarga ekologik barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya manbalari va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha bilimlar beriladi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sish bo'yicha seminarlar tashkil etilmoqda. Bu tadbirlar doirasida mutaxassislar va talabalarga zamonaviy ekologik tamoyillar va amaliyotlar o'rgatilmoqda.

O'zbekistonda "yashil" sanoatlashtirishni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar, jumladan, GIZ bilan hamkorlikda loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu hamkorlik doirasida mutaxassislar malakasini oshirish va yangi bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan "yashil iqtisodiyot" mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar natijalari ta'lim jarayoniga joriy etilmoqda va talabalarga yetkazilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O'zbekistonda energiyaga bo'lgan talabning ortishi va energiya narxlarining doimiy oshib borishi yashil energetikani rivojlantirish zaruratini yanada oshiradi. Zamonaviy, ekologik toza, energiya tejamkor texnologiyalar va QTEMdan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadlaridan biri atrof-muhitni asrab-avaylashdir. Ilg'or xalqaro tajriba va jahon elektr energetikasi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasida QTEMdan foydalanishni takomillashtirish zarur. Shuningdek:



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th February, 2025

1. Ishlab chiqarilgan elektr energiyani saqlash (akkumulyasiya) tizimini mukammallashtirish lozim.
2. Shamol, quyosh elektr stantsiyasini foydalanish muddati tugagandan so'ng utilizasiya qilish xarajatlarini oldindan rejalashtirish hamda unga xizmat ko'rsatuvchi ishchi xizmatchilarni o'qitadigan (malaka oshiradigan, tayyorlaydigan) o'quv maskanlarini (markazlarini) davlat tomonidan subsidiya qilish tartibi va javobgar tashkilot (mansabdor shaxs)ni belgilab berish lozim.
3. Mahalliy mutaxassislarni qo'llab quvvatlash, yoshlarda ushbu kasbga qiziqishini ortirish bo'yicha targ'ibotni kuchaytirish kerak.
4. Yashil iqtisodiyot maktablari (yashil maktab) (texnikumlari)ni shakllantirish lozim.
5. Yashil iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha kadr-mutaxassislarni tayyorlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarida "yashil iqtisodiyot" ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarni qisqartirilgan uch yillik bosqichda tayyorlash tizimini amaliyotga joriy etish lozim. Bunda davlat grantlari asosida o'qitish sonini ko'paytirish maqsadga muvofiq. Bunda "yashil iqtisodiyot" bo'yicha kadrlar tayyorlash va malaka oshirishni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:
 - oliy ta'lim muassasalarida "yashil iqtisodiyot" bo'yicha maxsus yo'nalishlar va mutaxassisliklar ochish, mavjud o'quv dasturlariga ekologik fanlarni kiritish;
 - yetakchi xorijiy universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, almashinuv dasturlarini tashkil etish;
 - "Yashil iqtisodiyot" sohasida ilmiy izlanishlarni rag'batlantirish, grantlar ajratish va tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish.
 - ishlab chiqarishda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun "yashil iqtisodiyot" bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi "“O'zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi PF-16-son Farmoni.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th February, 2025

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “2025 — 2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 865-son qarori.
3. Элмирзаев Самариддин, Шавкатов Наврузбек “ЯШИЛ” ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ДАВЛАТХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК МЕХАНИЗМЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ // Экономика и финансы (Узбекистан). 2023. №7 (167). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yashil-i-tisodiyotni-rivozhlantirishda-davlathususiy-sheriklik-mehanizmlaridan-foydalanish-masalalari>.
4. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 27-yanvar kuni "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot" yili davlat dasturi loyihasi yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishdagi nutqi.
5. Prezident Shavkat Mirziyoyev 28 yanvar kuni kuni O'zbekiston elektr energetikasini 2025-2035 yillar rivojlantirishchora-tadbirlari bo'yicha yilish ma'lumotlari.
6. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi a’lumotlari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “2025 — 2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 865-son qarori.
8. Markaziy bank ma’lumotlari.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi “Aholining mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini xarid qilish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lagan holda sotib olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 568-son qarori.
10. "Ember" mustaqil, notijorat tahlil markazi ma’lumotlari.